

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar – iyunida Jizzax viloyati YaHM hajmi joriy narxlarda 5 824,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,5 % ga o'sdi. YaHM deflyatori indeksi 2018 yilning yanvar – iyunidagi narxlarga nisbatan 120,7 foizni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 286,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish (yanvar-iyun)

	Mlrd.so'm		2018 yilga nisbatan, % da
	2018 y.	2019 y.	
I. YaHM	4 575,0	5 824,9	105,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 421,2	5 514,0	105,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	153,8	310,9	109,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 421,2	5 514,0	105,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 219,3	2 559,2	102,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	844,9	1 199,7	113,4
Sanoat	460,5	683,1	105,0
Qurilish	384,4	516,6	123,5
Xizmatlar	1 357,0	1 755,1	105,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	349,7	418,5	106,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	233,0	250,8	105,0
Boshqa xizmat tarmoqlari	774,3	1 085,8	104,8

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati – 102,3 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 46,4 %), Sanoat - 105,0 % (12,4%), qurilish – 123,5 %, (9,4 %), xizmatlar – 105,3 %, (31,8 %).

2019 yil yanvar - iyun uchun YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



Iqtisodiy faoliyat turlari


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) xajmi umumiy YaHMning 94,7 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,3 % ini tashkil etdi.

Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 3,8 % punktga kamaydi va hisobot yilida 46,4 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 2,7 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 21,8 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 1,1 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 31,8 % ni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar - iyun




2019 yil yanvar - iyun



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 7,6 % ni (2018 yil yanvar – iyunida 7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 4,5 % ni (5,3 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 19,7 % ni (17,5 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: G'.Mamadiyev
Telefon: (0371) 230-83-42